

shaffofligini ta'minlaydi va mehnat bozoridagi asimmetriyaning oldini oladi. Global mehmonxona korporatsiyalari (Marriott, Hilton)da inson resurslarini boshqarishda "Cloud-based HRM" (masalan, *Workday* yoki *Oracle HCM*) tizimlaridan foydalanib, butun dunyo bo'ylab o'n minglab xodimlarning ish samaradorligini yagona markazdan turib monitoring qiladi¹⁵⁰.

O'zbekistonda ziyorat turizmi va madaniy-tarixiy turizm resurslarining o'ziga xosligini hisobga olgan holda, xalqaro tajribadagi kabi, gidlar, mehmonxona xizmatchilari va turoperatorlarning malaka darajasini aks ettiruvchi yagona raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha taklif ishlab chiqish zarur. Bu sohadagi yashirin mehnat bozorini legallashtirishga xizmat qiladi. Xorijiy tajribaning tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli HRM tizimlari turizm korxonalarining operatsion xarajatlarini kamaytirish bilan birga, xizmat ko'rsatish standartlarini unifikatsiyalaydi. O'zbekiston turizm industriyasida ushbu tizimlarni bosqichma-bosqich joriy etish, nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki mamlakatimizning xalqaro turistik reytinglardagi (masalan, Global Tourism Index) o'rini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Turizm industriyasida inson resurslarini boshqarishni raqamlashtirishning nazariy-konseptual jihatlari hamda xorijiy tajribasini tahlil qilish asosida quyidagi raqamlashtirish turizm korxonalarida kadrlar bilan ishlash jarayonini oddiy ma'muriy funksiyadan strategik inson kapitalini boshqarish darajasiga olib chiqadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu esa xizmat ko'rsatish sifatini boshqarishda subyektiv xatoliklarni minimallashtiradi. Bundan tashqari, global turizm bozorida raqobatbardoshlik endilikda faqatgina tabiiy yoki madaniy resurslar bilan emas, balki kadrlar boshqaruvidagi raqamli innovatsiyalar va xodimlarning texnologik adaptatsiyasi bilan belgilanadi.

Golib MUSTAFOYEV,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori v.b., i.f.d.,
Gulzina HOMIDOVA,
Zarmed universiteti magistranti

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ JOYLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "AQLLI MAHALLA" VA "AQLLI QISHLOQ" KONSEPSIYALARINI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Maqolada qishloq hududlarini "Aqli qishloq" va "Aqli mahalla" tizimiga aylantirish masalalari tahlil qilinadi. Xorijiy olimlar (Parveen Kumar, Van Gevelt va Holmes)ning qarashlari asosida tadbirkorlik omili, xizmat ko'rsatish sohasining ustuvorligi va zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi muhimligi ta'kidlanadi. O'zbekiston sharoitida "Aqli qishloq" platformasini yaratishda xizmat ko'rsatishning 18 turi (sartaroshxona, dorixona, ta'lim markazlari, avtomobil ta'mirlash, internet zallari va boshqalar) asos qilib olinishi taklif etiladi. Prezidentning 2021-yildagi PQ-5113-son qarori doirasida mahalla kesimida xizmatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mualliflar respublikaning ayrim hududlarida (ijtimoiy infratuzilma, aloqa, tadbirkorlik va geografik omillar asosida tanlangan) yagona "Aqli qishloq" platformasini tatbiq*

etish mumkinligini asoslaydilar. Platforma orqali xizmatlarni onlayn topish, elektron buyurtma berish, ustoz-shogird tizimini joriy etish kabi mexanizmlar taklif qilinadi. Xulosa qilib aytganda, muvaffaqiyatli “Aqlli qishloq” tizimi uchun kommunikatsiya, infratuzilma va mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan yagona raqamli platforma zarur deb hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: Aqlli qishloq, aqlli mahalla, xizmat koʻrsatish sohasi, raqamli platforma, innovatsion texnologiyalar, qishloq hududlari, tadbirkorlik omili, oʻzbekiston, yagona platforma, mahalla, elektron xizmatlar, ustoz-shogird tizimi.

Аннотация. В статье анализируются вопросы преобразования сельских районов в систему «умной деревни» и «умной махаллы». На основе взглядов зарубежных ученых (Парвин Кумар, Ван Гевельт и Холмс) подчеркивается важность предпринимательского фактора, приоритетность сектора услуг и интеграция современных технологий. В условиях Узбекистана предлагается взять за основу для создания платформы «умной деревни» 18 видов предоставления услуг (парикмахерские, аптеки, образовательные центры, автомастерские, интернет-кафе и др.). В рамках Указа Президента № ПК-5113 от 2021 года особое внимание уделяется развитию услуг на уровне махаллы. Авторы обосновывают возможность внедрения единой платформы «Умная деревня» в отдельных регионах республики (выбранных на основе социальной инфраструктуры, коммуникаций, предпринимательства и географических факторов). Предлагаются такие механизмы, как онлайн-поиск услуг через платформу, электронный заказ и внедрение системы наставничества. В заключение, для успешной работы системы «Умная деревня» необходима единая цифровая платформа, учитывающая коммуникации, инфраструктуру и местные особенности.

Ключевые слова: умная деревня, умный махаллы, сектор услуг, цифровая платформа, инновационные технологии, сельская местность, предпринимательский фактор, Узбекистан, единая платформа, район, электронные услуги, система наставничества.

Abstract. The article analyzes the issues of transforming rural areas into a "Smart Village" and "Smart Mahalla" system. Based on the views of foreign scholars (Parveen Kumar, Van Gevelt and Holmes), the importance of the entrepreneurial factor, the priority of the service sector and the integration of modern technologies is emphasized. In the conditions of Uzbekistan, it is proposed to take 18 types of service provision (hairdressers, pharmacies, educational centers, car repair, Internet lounges, etc.) as a basis for creating a "Smart Village" platform. Within the framework of the Presidential Decree No. PQ-5113 of 2021, special attention is paid to the development of services at the mahalla level. The authors justify the possibility of implementing a single "Smart Village" platform in certain regions of the republic (selected based on social infrastructure, communication, entrepreneurship and geographical factors). Mechanisms such as online search for services through the platform, electronic ordering, and introduction of a mentor-apprentice system are proposed. In conclusion, a single digital platform that takes into account communication, infrastructure and local characteristics is considered necessary for a successful "Smart Village" system.

Keywords: Smart village, smart neighborhood, service sector, digital platform, innovative technologies, rural areas, entrepreneurial factor, Uzbekistan, single platform, neighborhood, electronic services, mentor-apprentice system.

Hindistonlik olim Parveen Kumar[1] “Aqlli qishloq” va “Aqlli mahalla” kategoriyasini bir-biri bilan sinonim tushuncha deb qaraydi. Uning fikricha qishloq joylarida har qanday aqlli tizimni yaratishda tadbirkorlik omili muhim oʻrin tutadi. Agar ushbu omildan unumli foydalanilmasa aqlli tizim ham inqirozga uchraydi deb hisoblaydi. Ammo olim tadbirkorlik omili deganda nimani nazarda tutganligini ochib bermagan. Lekin, “Aqlli mahalla”, “Aqlli mobillik”, “Aqlli energiya” va “Aqlli qishloq” kabilarning asosiy oʻzagini zamonaviy innovatsion texnologiyalar aks

ettirishi zarurligini qayd etadi.

Qishloq joylarini “Aqlli qishloq”ga aylantirishda xizmat ko‘rsatish sohasi asosiy o‘rinda turishini Vangeveld va Xolmslar ilgari surishadi. Ular sog‘liqni saqlash, ta’lim, oziq-ovqat xizmatlari, agrar xizmatlar, atrof-muhit xizmatlar va qishloq joylarini obodonlashtirish bilan bog‘liq xizmatlar “Aqlli qishloq”ning asosini tashkil etadi[2] degan tasavvurlarini taklif etishadi. Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki zamonaviy rivojlanishning har qanday ko‘rinishi xizmat ko‘rsatish sohasi bilan bog‘liq. “Aqlli qishloq” dasturlari ham xizmat ko‘rsatish turlarini o‘zida mujassam etgan.

Qishloq joylarida “Aqlli qishloq” yoki “Aqlli mahalla” tizimini yaratish orqali zamonaviy xizmatlarni joriy qilish mumkin. Masalan, “Aqlli qishloq” yoki “Aqlli mahalla” platformasining o‘ziga turli xizmat ko‘rsatish turlarini kiritish bilan aqlli platforma yaratiladi. Ushbu platforma qishloq joylarida zamonaviy xizmatlarni ko‘rsatadi. Ammo, mamlakatimizda hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqi tavsiyalari bo‘yicha qishloq joylarida 5 ta yo‘nalishdagi “Aqlli qishloq” tizimini yaratishda murakkab texnologiyalarning o‘rnatilishi, ularni ishlatish qobiliyati, turli sarf-harajatlar bilan bog‘liq. Lekin, qishloq joylari mahallalari kesimida turli xizmatlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor bermoqda. Shulardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 – yil 11 – maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari” PQ – 5113 son qaroridir[3]. Ushbu qaror qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirishni nazarda tutadi. Mahallalar kesimida quyidagi 18 ta xizmat ko‘rsatish turlarini jadal rivojlantirish belgilangan:

1. Sartaroshxona;
2. Savdo do‘konlari;
3. Dorixonalar;
4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari;
5. Ta’lim markazlari;
6. Go‘zallik saloni;
7. Maishiy texnikalarni ta’mirlash;
8. Avtotransport vositalarini ta’mirlash;
9. Tantanalar va oilaviy tadbirlarni tashkil etish xizmatlari;
10. Poyabzal tikish va ta’mirlash;
11. Kiyim tikish va ta’mirlash (atele);
12. Internet zallari;
13. Nusxa ko‘chirish;
14. Avtotransport vositalarini yuvish shoxobchasi;
15. Xo‘jalik mollari va uy-ro‘zg‘or buyumlarini ijaraga berish;
16. Zooveterinariya punktlari;
17. Umumiy ovqatlanish xizmatlari;
18. Sport maydonchalari;

Bizning nazarimizda “Aqlli qishloq” yoki “Aqlli mahalla” tizimini yaratishda har bir qishloq va mahallaning respublika miqyosidagi yagona platformasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun hududlarda ijtimoiy infratuzilmalar, kommunikatsiya aloqalari yaxshi rivojlangan bo‘lishi lozim.

Tadqiqotlarimiz Respublikamizning qo‘yidagi hududlarda “Aqlli qishloq”

platformasini tadbiq etish mumkinligini ko'rsatdi(1-jadval).

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi "Aqlli qishloq" platformasini tadbiq etish
imkoniyatiga ega bo'lgan hududlar[4]**

№	Viloyatlar	Tumanlar	Mahallasi
1.	Andijon	Oltinko'l	Jalabek
		Marhamat	Qoraqo'rg'on
		Andijon	Xortum qishlog'i
		Asaka	Axtachi
2.	Buxoro	Qorako'l	Xo'jalar
		Romitan	A.Navoiy
		Buxoro	Mustaqillik
3.	Samarqand	Jomboy	Dehqonobod
			Shayman
		Urgut	Mergancha
			Mirzaqishloq
		Oqdaryo	Hartang
		Narpay	Sarbozor
	Samarqand	Gulobod	
4.	Sirdaryo	Sardoba	Xalqobod
5.	Surxondaryo	Sariosiyo	Afrosiyob
6.	Farg'ona	Yozyovon	Suvliariq
			Guliston qishlog'i
		Dang'ara	Chinobod
		Buvayda	Yangi qo'rg'on qishlog'i
	Quva	Namuna qishlog'i	
7.	Namangan	Norin	Yetti qashqa
		Namangan	Kichik qurama
8.	Navoiy	Karmana	Malikrabort
		Xatirchi	Damariq
9.	Jizzax	G'allaorol	Sarbozor qishlog'i
10.	Xorazm	Tuproqqala	Pintak qishlog'i
		Xazorasp	Pichoqchi qishlog'i
		Bog'ot	Beshariq qishlog'i
11.	Toshkent	Yangiyo'l	Mustaqillik
		Toshkent	Oqibat
		Chinoz	Olmazor
		Ohangaron	Yonariq
		Bo'ka	Toshloq
		Bo'stonliq	Kichiksoy
12.	Qashqadaryo	Koson	Nurafshon
		Muborak	Konchilar
13.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Beruniy	Jayxun

1-jadval ma'lumotlari Respublikamiz viloyatlarining ba'zi tumanlarida "Aqlli qishloq" platformasini tadbiq etish mumkinligini ko'rsatdi. Tavsiya etayotgan hududlarimiz boshqa hududlarga nisbatan taraqqiy etgan. Ushbu hududlarda "Aqlli qishloq" platformasini tadbiq etish oson kechadi. Shuni ham alohida ta'kidlash

